

Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.

14. Шоабдурахмонов Ш. Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. -Тошкент, 1962.

15. Шонимова Н. Кашкадарё ўзбек кичик шевалари лексикаси. -Қарши: Насаф, 2000.

16. Еназаров Т., Каримjonova V. va boshqalar. O'zbek dialektologiyasi. - Toshkent: Universitet, 2012.

17. Ўзбек халқ шевалари луғати. - Тошкент: Фан, 1971.

#### Axborot manbalari

1. [www.turk.dili.google.com.tr](http://www.turk.dili.google.com.tr)

2. [http://www.ut.uz/eng/today/europe recognizes her discovery.mgr](http://www.ut.uz/eng/today/europe%20recognizes%20her%20discovery.mgr)

3. <http://www.schneid9.de/sprache/linguistik/ling11.pdf>

4. <http://www.uni-leipzig.de/~fsgcr/materialien/Texte/Lexikologie.pdf>

5. [www.dersimiz.com](http://www.dersimiz.com)

6. [www.altinmiras.com](http://www.altinmiras.com)

7. [www.thinsan.com](http://www.thinsan.com)

#### 8. O'QUV DASTURI HAQIDA MA'LUMOT

O'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2022-yil "25" "08" dagi "1" sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

"Folklorshunoslik va dialektologiya" kafedrasi mudiri, f.f.d., professor


S.Ashirboyev



(imzo)

Tuzuvchi:

M.Rahmatov




(imzo)

"Folklorshunoslik va dialektologiya" kafedra katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

A. Tilavov



(imzo)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi;

M.Turdibekov



(imzo)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI**  
**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**



**“TASDIQLAYMAN”**  
Rektor Sh. Sirojiddinov  
2022-yil 25-avgust

**“O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASI”**

fanining o‘quv dasturi (sillabusi)

<b>Bilim sohasi:</b>	200 000 – San’at va gumanitar fanlar
<b>Ta’lim sohasi:</b>	230 000 – Tillar
<b>Ta’lim yo‘nalishi:</b>	60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik

Fan/modul kodi 302 O'D 1 6		Fan/modul turi majburiy		Ta'lim tili o'zbek		Ishlab chiqilgan o'quv yili 2022/2023				
Semestr	Har bir semestrda modulning nomi	ECTS - Kreditlar	Haftalik dars soatlari	O'quv mashg'ulotlari (soat)					Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
				Jami:	ma'ruza	seminar	amaliy laboratoriya			
2.	O'zbek dialektologiyasi	6	6	90	30	0	60	0	90	180
	<b>Jami:</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>90</b>	<b>30</b>	<b>0</b>	<b>60</b>	<b>0</b>	<b>90</b>	<b>180</b>

## 1. FANNING MAZMUNI

Fanni o'qitishdan *maqsad* o'zbek shevalarining asosiy xususiyatlari: fonetikasi, leksikasi va grammatik qurilishi to'g'risida, shevalar bo'yicha xalqaro jarayonlardagi masalalar va muammolar haqida ma'lumot berish, shevalar va ularning fonetikasi, leksikasi va grammatikasini ilmiy jihatdan tadqiq qilish ko'nikmalarini shakllantirish hamda talabalarni bu borada mantiqiy fikrlashga, to'g'ri xulosa chiqarishga tayyorlashdir.

Fanni o'qitishning *vazifasi* talabalarga fan nazariyasi hamda amaliyotiga oid bilimlarni berish, olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay bilishga o'rgatishdir.

## 2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- “O'zbek dialektologiyasi”ning nazariy va amaliy muammolari, uning filologik fanlar tizimidagi o'rnini, terminologiyasi, o'zbek tilining dialektal tuzilishi, shevalarni o'rganishning yangi metod va metodikalari sohasidan *tasavvur va bilimlarga ega bo'lishi*;

- o'zbek shevalaridagi o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarni o'zlashtirish, sheva vakillaridan dialektal matnlarni yozib olish, ulardan dialektal so'zlarni ajratib olish va ularga lug'at maqolalar tayyorlash, dialektal farqlarni aniqlash *ko'nikmalariga*;

- respondentlar bilan amaliy ishlay olish, to'plangan dialektal materiallarni ilmiy tahlil qilish, uni ilmiy maqola sifatida shakllantirish, dialektologik adabiyot materiallarni tahlil qila olish va ularni o'zi to'plagan materiallarga tatbiq eta olish va talabalar konferensiyasi va seminarlarida ma'ruza bilan ishtirok etish *malakalariga ega bo'lishi lozim*.

### 3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

#### Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (aqliy hujum, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

### 4. TALABALAR KREDITLARNI OLISH TARTIBI

Talabalarning bilimini baholash tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

#### 1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.

**Oraliq nazorat:** O'tilgan mavzular asosida og'zaki yoki test shaklda o'tkaziladi.

**Yakuniy nazorat:** Semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha test yoki og'zaki shaklda o'tkaziladi.

***Izoh:** Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martaqacha o'tkazilishi mumkin.*

*Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.*

*Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muayyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.*

#### 2. Talabalarning bilimi baholash mezonlari:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 5 (**a'lo**) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda - 4 (**yaxshi**) baho;

talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 3 (**qoniqarli**) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – 2 (**qoniqarsiz**) baho bilan baholanadi.

## 5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI

### 2-SEMESTR

#### 1. Ma'ruza mashg'ulotlari

No	Ma'ruza mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soat
1.	Kirish. "O'zbek dialektologiyasi" fanining maqsad va vazifalari	"O'zbek dialektologiyasi" fani, uning predmeti, maqsad va vazifalari. Fanning nazariy va amaliy ahamiyati. Tasviriy dialektologiya, tarixiy dialektologiya, folklor dialektologiyasining vazifasi. "O'zbek dialektologiyasi"ning o'rganilishi haqida umumiy ma'lumot.	2
2.	Transkripsiya va unga xos xususiyatlar	Transkripsiya, fonetik va fonologik transkripsiya. Transliteratsiya. Unli tovushlarda qo'llaniladigan transkripsion belgilar. Undosh tovushlarda qo'llaniladigan transkripsion belgilar. An'anaviy va yangi o'zbek transkripsiyasi. Diakritik belgilar.	2
3.	"O'zbek dialektologiyasi" ning asosiy tushunchalari	Sheva, dialekt va lahja tushunchalari. Til egasi va sheva egasi. Mahalliy va ijtimoiy dialekt. Lahja va idiom. Lahja va til variant. Idiolekt. Shevalarni o'rganish metodlari. "O'zbek dialektologiyasi"ning boshqa fanlar bilan aloqasi.	2
4	O'zbek shevalarining o'rganilish tarixiy oqimi	O'zbek tilining dialektal tarkibi. O'zbek shevalarining tarixiy oqimi. XI-XV asrlarda shevalarning o'rganilishi va uning ahamiyati. XVI-XVIII asrlarda o'zbek shevalarining o'rganilishi. XIX asrda o'zbek shevalarining o'rganilishiga xos xususiyatlar. XX asrda o'zbek shevalarining o'rganilishi va tadqiq etilishi.	2
5.	O'zbek shevalarining fonetik xususiyatlari	O'zbek shevalari fonetikasi. O'zbek shevalarining vokalizmi. O'zbek shevalaridagi va o'zbek adabiy tilidagi unlilar munosabati. Birlamchi, ikkiltamchi cho'ziqlik va emfatik (ultra) cho'ziqlik. Lablangan va lablanmagan unlilar. Difflonglashish hodisasi. O'zbek xalq shevalarining konsonantizmi. Shevalardagi «y» lashish va «j» lashish hodisalari. O'zbek shevalaridagi undoshlar tasnifining o'ziga xos jihatlari va o'zbek adabiy tili undoshlari tasnifi bilan munosabati.	2

6.	O'zbek shevalarining fonetik qonunlari	O'zbek shevalarida singarmonizm va uning turlari. Palatal singarmonizm. Labial singarmonizm. Umlaut. Diftong va diftongoidlar.	2
7.	O'zbek shevalaridagi fonetik jarayonlar	Tovushlarning kombinator va pozitsion o'zgarishlari. Unlilar cho'ziqligi turlari. Tovush mosligi. Shevalarida sandxi holatidagi tovush o'zgarishlari. Spirantizitsiya. Spontan o'zgarishlar. Eliziya. So'z shakllarining torayishi. Unli va undoshlarning orttirilishi.	2
8.	O'zbek shevalari leksikasi va leksikografiyasi	O'zbek shevalari leksik tarkibidagi umumxalq tiliga xos umumiy leksik qatlam haqida ma'lumot. Dialektal so'z va uning turlari. O'zbek shevalari leksik tarkibida tub (turkiy) va o'zlashtirilgan so'zlar. Shevalar leksikasining adabiy til bilan munosabati. Shevalar leksikografiyasi, ularni tuzish tamoyillari va turlari. Bu sohada yaratilgan lug'atlar. Shevalar leksikografiyasining yutuq va kamchiliklari.	2
9.	O'zbek shevalarining grammatik xususiyatlari	O'zbek shevalarida grammatik son kategoriyasi. O'zbek shevalarida egalik kategoriyasi. O'zbek shevalarida kelishik kategoriyasi.	2
10.	O'zbek shevalarida fe'llarning o'ziga xos xususiyatlari	Fe'llning funksional shakllari. To'la yoki I tip tuslovchilar. Qisqargan yoki II tip tuslovchilar. Fe'l mayllari va zamonlaridagi ayrim o'ziga xos shakllar.	2
11.	O'zbek shevalarida so'z turkumlari. Sintaksis	Mustaqil so'z turkumlari. Yordamchi so'z turkumlari, undov va mimemalar. So'z turkumlariga xos morfologik shakllar. So'z yasalishi. Shevalarda so'z birikmasi va izofali birikmalar. Sheva matnlarida gaplarning qo'llanish xususiyatlari.	2
12.	O'zbek tili lahjalari	Qarluq, qipchoq, o'g'uz lahjalarining muhim fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari.	2
13.		O'zbek adabiy tili hamda sheva va dialektlar. Ularga xos leksik xususiyatlar. Shevalar - o'zbek adabiy tilining ichki	2

	O'zbek adabiy tili va shevalar	boyish manbayi. Adabiy til me'yori va dialektal me'yor.	
14.	Areal lingvistika	Lingvistik geografiya tushunchasi. Tilshunoslikdagi bunday yo'nalishning paydo bo'lishi va taraqqiyoti. Lingvistik geografiyaning mohiyati. Lingvistik geografiya va unga xos xususiyatlar. O'zbek shevalarining lingvistik geografiya usulida o'rganilishi. Dialektologik atlaslar. O'zbekistonda lingvistik geografiyaning shakllanishi. O'zbek shevalari dialektal atlasining yaratilishi bo'yicha olib borilayotgan ilmiy ishlar.	2
15.	O'zbek shevalari tasnifi	O'zbek shevalarining dialektal bo'linishi. O'zbek xalq shevalari tasnifi: a) prof. I.A.Zaruibin tasnifi; b) prof. K.K.Yudaxin tasnifi; v) prof. Y.D.Polivanov tasnifi; g) G'ozli Olim tasnifi; d) prof. A.K.Borovkov tasnifi; e) prof. V.V.Reshetov tasnifi.	2
<b>Jami:</b>			<b>30</b>

## 2. Amaliy mashg'ulotlar

№	Amaliy mashg'ulot mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soat
1.	Transkripsiya. Shevalardan yozib olingan matnlarni transkripsiyada o'qish	Shevaga xos matnlarda unli va undoshlar transkripsiyasi. Transkripsion va diakritik belgilarning amal qilishi.	2
2.	Shevalardan yozib olingan matnlarni transkripsiyada o'qish va yozish	An'anaviy transkripsiyada yozilgan shevaga xos matnlarni yangi o'zbek transkripsiyasiga transliteratsiya qilish va o'qish.	2
3.	Transkripsiyada matn yozishni mashq qilish.	Diktofondan foydalanib, suhbat, xalq maqollari, qo'shiqlari va frazeologik birliklarni transkripsiyada yozish.	4
4.	Transkripsiyada yozilgan matnlarni tahlil etish	Shevalardan yozib olingan matnlarda unli va undosh tovushlarning variantlarini aniqlash, kontrast juftliklarga izoh berish.	2
5.	Shevalarda unli va undosh tovushlar tizimini o'rganish	Unli va undoshlar tavsifi, o'zbek shevalarida unli va undoshlarning tasnifi.	2

6.	Shevalardan yozilgan matnlarni fonetik tahlil qilish	Shevaga xos matnlarda unli va undoshlar tizimi va ular bilan bog'liq fonetik xususiyatlar.	2
7.	O'zbek shevalarida uchraydigan fonetik qonunlar	Singarmonizm va uning turlari, umlaut, diftong.	4
8.	O'zbek shevalaridagi fonetik hodisalar	Shevaga xos matnlarda unli va undoshlar bilan bog'liq fonetik jarayonlar. Akkomadatsiya, assimilyatsiya, dissimilatsiya, sandxi tovush mosligi, spirantizitsiya, spontan o'zgarishlar, eliziya.	4
9.	Shevalardan yozib olingan matnlarning leksik tahlili	Matnda umumxalq tiliga xos leksik tarkibni, leksik qatlamni belgilash. Dialektal so'zlarni aniqlash. Leksik moslik.	2
10.	Shevalardan yozilgan matnlarni leksik-semantik tahlil qilish	Leksik birliklarni shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, ma'no ko'chish turlari	2
11.	Qarluq lahjasi shevalaridan yozilgan matnlarning leksik-semantik tahlilini amalga oshirish	Leksik birliklarni shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, ma'no ko'chish turlari	2
12.	Qipchoq lahjasi shevalaridan yozilgan matnlarni leksik-semantik tahlil qilish	Leksik birliklarni shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, ma'no ko'chish turlari	2
13.	O'g'uz lahjasi shevalaridan yozilgan matnlarning leksik-semantik tahlilini amalga oshirish	Leksik birliklarni shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, ma'no ko'chish turlari	2
14.	Shevalarga oid lug'atlarni tahlil qilish (fonetik, tavsifiy, dialektal frazeologizmlar lug'ati,)	Dialektal lug'atlarni tayyorlash me'yorlari. Dialektal so'zlarning leksik, semantik ma'nolari, ularning turlari.	4
15.	Shevalardan yozib olingan matnlarni morfologik tahlil qilish	Qarluq, qipchoq, o'g'uz lahjalariga xos matnlarda otga xos morfologik xususiyatlarni qiyoslab o'rganish.	2
16.	Qarluq lahjasidan yozib olingan matnlarni morfologik tahlil qilish	Shevaga xos matnlarda mustaqil so'z turkumlari: fe'l, ot, sifat, son, olmosh, ravish va yordamchi so'z turkumlariga xos, alohida, morfologik xususiyatlarni aniqlash.	2



17.	Qipchoq lahjasidan yozib olingan matnlarni morfologik tahlil qilish	Shevaga xos matnlarda mustaqil soʻz turkumlari: feʼl, ot, sifat, son, olmosh, ravish va yordamchi soʻz turkumlariga xos, alohida, morfologik xususiyatlarni aniqlash.	2
18.	Oʻgʻuz lahjasidan yozib olingan matnlarni morfologik tahlil qilish	Shevaga xos matnlarda mustaqil soʻz turkumlari: feʼl, ot, sifat, son, olmosh, ravish va yordamchi soʻz turkumlariga xos, alohida, morfologik xususiyatlarni aniqlash.	2
19.	Shevada feʼlning funksional shakllari	Sof feʼl, sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi shakllari tahlili	2
20.	Shevada zamonning ifodalinishi	Shevalarda oʻtgan, hozirgi va kelasi zamon shakllari	2
21.	Shevalarda feʼlning tuslovchi shakllari	Birinchi tip tuslovchilar, ikkinchi tip tuslovchilar, buyruq-istak mayli	2
22.	Shevalarda yordamchi soʻz turkumlari tahlili	Shevalarda yuklama, koʻmakchi, undov va taqlidiy soʻzlarning qoʻllanishi	4
23.	Muayyan shevadagi tautologik boʻlaklarning sintaktik xususiyatlari	Leksik takrorlar va sintaktik takrorlar	2
24.	Shevalardan yozilgan matnlarning sintaktik va kompleks tahlilini amalga oshirish	Shevalardan yozib olingan matnlarni leksin, sintaktik va morfologik jihatdan tahlil qilish	2
25.	Shevalardan yozib olingan matnlarning sintaktik tahlilini amalga oshirish	Shevadan yozilgan matnlarda soʻz birikmasi va izofali birikmalar. Gapning qoʻllanishida oʻziga xoslik, tautologik boʻlaklarning sintaktik xususiyatlarini oʻrganish.	2
<b>Jami:</b>			<b>60</b>

### 3. Mustaqil taʼlim ishlari

№	Mustaqil taʼlim mavzulari	Oʻquv mashgʻulot turi nomi	Qisqacha tavsifi (kalit soʻzlar)	Soat
1.	Oʻzbek dialektologiyasiʼning asosiy tushunchalari.	maʼruza	Dialekt, sheva va lahjalarning oʻziga xos xususiyatlari.	2

2.	O'zbek shevalarining o'rganilishi tarixi.	ma'ruza	O'zbek shevalarini o'rganishda qo'llaniladigan metodlar.	4
3.	Transkripsiya va unga xos xususiyatlar	amaliy	An'anaviy va yangi o'zbek transkripsiyasi. Diakritik belgilar.	4
4.	O'zbek shevalari fonetikasi	ma'ruza	O'zbek shevalarining vokalizmi. O'zbek shevalaridagi va o'zbek adabiy tilidagi unlilar munosabati.	4
5.	Birlamchi, ikkilamchi cho'ziqlik va emfatik (ultra) cho'ziqlik. Lablangan va lablanmagan unlilar	amaliy	Tovushlarning kombinator va pozitsion o'zgarishlari. Unlilar cho'ziqligi turlari. Tovush mosligi.	2
6.	O'zbek xalq shevalarining konsonantizmi	ma'ruza	Shevalardagi «y» lashish va «j» lashish hodisalari. O'zbek shevalaridagi undoshlar tasnifining o'ziga xos jihatlari va o'zbek adabiy tili undoshlari tasnifi bilan munosabati.	2
7.	O'zbek shevalaridagi nutq tovushlarining kombinator va pozitsion o'zgarishlari	amaliy	Singarmonizm va uning turlari. Akkomadatsiya, assimilatsiya va uning turlari. Dissimilatsiya. Sandxi holatidagi tovush o'zgarishlari. Spirantizatsiya. Spontan o'zgarishlar. Eliziya. So'z shakllarining torayishi. Unli va undoshlarning ortirilishi.	6
8.	O'zbek shevalari leksikasi	amaliy	O'zbek shevalari leksik tarkibidagi umumxalq tiliga xos umumiy leksik qatlam haqida ma'lumot. Dialektal so'z va uning turlari.	4
9.	Shevalar leksikasining adabiy til bilan munosabati	amaliy	Shevalar leksikasi va jargonlar. Leksik moslik. Shevalardan o'zbek adabiy tiliga so'z o'zlashish masalasi.	2
10.	Shevalar leksikografiyasiga xos xususiyatlar	ma'ruza	Dialektal lug'atlarni tuzish tamoyillari va turlari. Bu sohada yaratilgan lug'atlar. Shevalar leksikografiyasining yutuq va kamchiliklari.	10
11.	Bir sheva lug'atini tayyorlash	amaliy	Muayyan shevadan "Bir sheva lug'ati"ni shakllantirish	4

12.	Shevalar morfologiyasi	amaliy	Shevalardagi soʻz turkumlari va ularning yasalishi.	2
13.	Muayyan shevaning kelishiklar tizimi	amaliy	Shevalardagi kelishiklarning oʻziga xos xususiyatlari.	2
14.	Alohida shevaning egalik shakllari	amaliy	Oʻzbek shevalarida grammatik son kategoriyasi va uning variantlari.	2
15.	Muayyan shevada feʼlning funksional shakllari	amaliy	Toʻla yoki I tip tuslovchilar. Qisqargan yoki II tip tuslovchilar.	2
16.	Alohida shevada zamon shakllari	amaliy	Oʻtgan zamon. Hozirgi zamon. Kelasi zamon. Zamon shakllarining oʻziga xos xususiyatlari.	2
17.	Shevalarda yordamchi soʻz turkumlari	amaliy	Alohida shevada yordamchi soʻz turkumlarining oʻziga xosligini aniqlash.	2
18.	Shevalarda soʻz yasafishi	amaliy	Soʻz yasalishiga oid misollarni dialektal matnlardan topish.	2
19.	Shevalar sintaksisi	amaliy	Dialektal matn – shevalar sintaksisini oʻrganish obyekti. Dialektal gap va soʻz birikmalari.	2
20.	Qarluq lahjasining muhim xususiyatlari haqida	amaliy	Shevalardan oʻzbek adabiy tiliga soʻz oʻzlashish masalasi.	2
21.	Qipchoq lahjasining muhim xususiyatlari	amaliy	Lahjaning fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari.	2
22.	Oʻgʻuz lahjasining muhim xususiyatlari toʻgʻrisida	amaliy	Lahjaning fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari.	2
23.	Oʻzbek xalq shevalari tasnifi	maʼruza	Prof. Y.D.Polivanov tasnifi, Gʻozi Olim tasnifi.	2
24.	Oʻzbek xalq shevalari tasnifi	maʼruza	Prof. A.K.Borovkov tasnifi, prof. V.V.Reshetov tasnifi.	2
25.	Lingvistik geografiya	maʼruza	Tilshunoslikda lingvistik geografiya metodining paydo boʻlishi va taraqqiyoti. Lingvistik geografiyaning mohiyati.	4
26.	Oʻzbek shevalarining lingvistik geografiya usulida oʻrganilishi	maʼruza	A. Joʻrayev, Q. Muhammadjonov, A. Shermatov, N. Murodova, Y. Ibrohimov va Z. Ibrohimova, I.	4

			Darveshov, N. Raxmonovlarning tadqiqotlari.	
27.	Dialektologik atlaslar	amaliy	O'zbekistonda lingvistik geografiyaning shakllanishi.	4
28.	Badiiy adabiyotlarda dialektizmlar tahlili	amaliy	Badiiy asarlar ustida ishlash. Dialektizmlarni qo'llashda yozuvchining maqsadi.	8
			Jami:	90

#### Asosiy adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
2. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Navro'z, 2016.
3. Murodova N. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: 2019.
4. Enazarov T. Dialektologiya metodologiyasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
5. Xidraliyeva Z. O'zbek dialektologiyasi (amaliy mashg'ulotlar) – Toshkent: Nodirabegim, 2021.

#### Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари” тўғрисида // Халқ сузи. 2017 йил, 21 апрель.
2. Мирзиёев Ш.М. Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг уттиз йиллигига бағишланган танганали маросимдаги нутқ // Халқ сузи. 2019 йил октябрь.
3. Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони // Халқ сузи. 2016 йил 15 май.
4. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. Т., 1960.
5. Абдуллаев Ф.А. Дialeктал лугат тузиш принциплари хақида // УТА.Т., 1966. 2-сон. 39-бет.
6. Абдуллаев Ф.А. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. – Т., Фан, 1978.
7. Абдурахмонов Д. Ўзбек шевалари морфологиясининг урганилиши // Ўзбек шевалари морфологияси. – Тошкент, Фан, 1984. 248-271-бетлар.
8. Бегалнев М.К. Ўзбек тилининг Қорабулоқ шеваси лексикаси. Тошкент, Iqtisod-Moliya, 2007.
9. Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. – Т., Фан, 1990.
10. Рахимов С. Сурхондарё ўзбек шевалари лугати. – Денов, 1993.
11. Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
12. Решетов В. В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. -Тошкент: Ўқитувчи, 1959; -Тошкент: Ўқитувчи, 1962; -Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
13. То'ychiboyev B., Hasanov B. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: